

5 - Mavzu: Qo'g'irchoq teatri personajlarini yasash orqali badiiy ijodiy qobiliyatlarni shakllantirish mazmuni va qo'g'irchoq yasash usullari

Reja:

- 1.Qo'g'irchoq teatri haqida tushuncha, teatrining bolalar hayotidagi o'rni.
- 2.Qo'g'irchoq teatri turlari va uning o'ziga xos xususiyatlari.
- 3.Qo'g'irchoqlarni tayyorlash texnologiyasi.

Tayanch iboralari:

Qo'g'irchoq, teatr, qo'g'irchoq teatri, stol teatri, o'yin teatri, qo'lqopli teatri, soya teatri, magnitli teatr, ipli teatr, sim (trostli) teatr, shirma, barmoqli teatr, syujet, sahna.

1.Qo'g'irchoq teatri haqida tushuncha, teatrining bolalar hayotidagi o'rni.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari faoliyatlarida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirish, ijodiy faoliyatlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limning hozirgi bosqichida tarbiyalanuvchilarni ijodiy mehnatga tayyorlash-kelajak avlodning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biridir.

Bolalarni ijodiy mehnatga tayyorlash qiziqish va dunyoqarashlarini o'stirish, o'ziga ishonchimkoniyatlarini yanada oshirilishida, qo'l mehnatiasosiy o'rinni egallaydi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan tashlandiq (keraksiz, chiqindi) materiallardan, sun'iy xom-ashyolar bilan ishlash ko'nikmalari hosil qilinadi. Asosan bolalarning yoshi vaguruhlariga qarab ilk mehnat tushunchalari hamda qo'g'irchoq yasash jarayonlaritarbiyachi-pedagog tomonidan o'rgatilib boriladi.

Teatr -bu yunoncha (tiyation)so'zidan olingan bo'lib-tomoshaxona degan manoni bildiradi.Jajji kichkintoylarimizning sevimli tomoshasi bu- qo'g'irchoq teatridir. Bu teatr orqali bolalar o'zlariga yaqin va tanish bo'lgan o'yinchoqlarni, ayiqcha quyoncha, kuchukcha kabi qahramonlarni jonliligi, harakat qilish va gapirish bolalarni o'ziga rom etadi.Tarbiyalanuvchilarni qo'g'irchoq yasashga o'rgatishda quyidagilar muhim o'rin tutadi:

-yasalayotgan qog'irchoq turi va uning o'ziga xosligi haqida dastlab og'zaki tushuncha berish;

- Kerakli jihozlar, ulardan to'g'ri va ehtiyotkorona foydalanish haqida tarbiyachi eslatmasi;

- asosiy ishni boshlash, har bir harakatlar ketma-ketligi oldidan tarbiyachining amalda ko'rsatmasi;

- har bir tarbiyalanuvchilarning xatti-harakatini kuzatish;

- o'z vaqtida rag'batlantirib borish.

Tarbiyachi va tarbiyalanuvchilar uchun turli qo'g'irchoqlar yasash texnologiyalari ishlab chiqilib, bevosita maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatida qo'llanildi. Ushbu jarayonni amalga oshirishda quyidagi talablarga rioya qilinishi qat'iy belgilab olinadi:

- qo'g'irchoqning turi, nomi, shakli, hajmi va ishlatilishi to'g'risida dastlabki tushunchalarning berilishi;

- bolaning bemalol harakat qilishi va yasashi uchun qulay shart-sharoit yaratilishi;

- bolalarning o'yinchoq yasashlari uchun kerakli materiallarning hozir bo'lishi;

- tarbiyachihar bir harakatni tushuntirgan holda yasab ko'rsatishi;

- tayyor qo'g'irchoqlar na'muna sifatida ko'rsatilishi;

- qo'g'irchoq milliylikka yo'g'rilgan, an'analarni saqlab qolgan, o'zbekona turmush tarzini o'zida aks ettirgan bo'lishi lozim;

- qo'g'irchoq bolaga jarohat yetkazmaydigan, o'ynash uchun qulay, bola sog'lig'iga zararsiz, bejirim tayyorlanishi kerak;

- qo'g'irchoq bolaning qiziqishlariga mos kelishi, har xil o'yinlarda foydalana oladigan, ijodkorlikka undaydigan bo'lishi lozim;

- qo'g'irchoqning tashqi ko'rinishi samimiy, xushchaq-chaq bo'lishi maqsadga muvofiqdir;

- ish jarayonida estetik didga e'tibor qaratish;

- bolalarning jismoniy rivojlanganligini e'tiborga olish;

- bolada yasagan qo'g'irchoq'iga nisbatan muhabbat hissini uyg'otish, mehnatning natijasidan quvonish, mas'uliyatli bo'lishga o'rgatish;

- o‘rtoqlari bilan hamkorlik qilish, o‘zaro yordamlashishni qaror toptirish;
- yasalayotgan qo‘g‘irchoq bolaning yosh va bilim saviyasiga mos bo‘lishi, uning tashqi qiyofasi tasviridan bola zavqlanishi lozim;
- qo‘g‘irchoqqa berilgan ranglarning turli-tumanligi, kiyimining bejirimligi, yasaliishining soddaligi bola ruhiyatiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Tarbiyachilar mashg‘ulotlar vatajriba-sinov ishlari davrida ham maktabgacha katta

yoshdagi bolalarda qo‘g‘irchoq teatri vositasida axloqiy-estetik sifatlarni




shakllantirishga xizmat qiluvchi-bolalar ijodiy mehnatidan unumli foydalanilishi maqsadga muvofiqdir.

Ushbu jarayonda bolalar yapaloq (tekis) qo‘g‘irchoqlar, qo‘lqopli qo‘g‘irchoqlar, qutili qo‘g‘irchoqlar, qo‘lga kiyib o‘ynatiladigan qo‘g‘irchoqlarni yasashda faol ishtirok etib, tarbiyachi ko‘rsatmalari asosida muayyan bilim, ko‘nikmalarga ega bo‘ldilar. Shuningdek, tarbiyachilar uchun sim (trost) bilan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar, ip (marionetka) bilan boshqariladigan qo‘g‘irchoqlar, aktyorik o‘rinadigan (planshetnsh) qo‘g‘irchoqlar, soyali (tenevoy) qo‘g‘irchoqlar, niqobli (maska-shou) qo‘g‘irchoqlarni yasash bo‘yicha muayyan ko‘rsatmalar berilsa ularning o‘z faoliyatlarida foydalanishlari uchun keng imkoniyalarga ega bo‘ladilar.




Qo'g'irchiq



Qo'l barmoqlarining qo'g'irchoqda



Qo'g'irchoqni egishda



Sahna ortidagi aktyorholati joylashishi.
barmoqlar holati.

2. Qo'g'irchoq teatri turlari va uning o'ziga xususiyatlari.

Maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitida turli qo'g'irchoq teatri turlaridan mashg'ulotlar jarayonida hamda bolalarni bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil qilishda keng ko'lamda foydalanish katta ahamiyatga ega.

Teatr bolalarga katta hursandchilik va quvonch bahsh etib, ko'ngil ochish uchun, balki tarbiyaviy ahamiyatga egaligi bilan ham ajralib turadi. Tayyor kichik qo'g'irchoqlar yoki bolalar tomonidan yasalgan qo'lqop, qog'ozli, tekis (yapaloq), porolonli qo'g'irchoqlar shular jumlasidandir.

Magnitli teatr- mavzuga moslangan holda hikoya yoki ertak qahramonlari, personajlariga mos qo'g'irchoqlar tanlanadi. Ularning ostiga magnet kesimi o'rnatiladi. So'ngra, moslashtirilgan stol ustida metall (magnet tortadigan)

oʻrnatiladi. Koʻrinmaslik uchun ustiga mato tortiladi. Ushbu teatrda asosan qarama-qarshi 2-3 ta bola ishtirok etishi mumkin. Bolalar navbat bilan harakatlantirishi, qoʻgʻirchoqlar ham bir-biriga qarab harakatlanishi, bir-biridan qochishi (quvlashi) mumkin. Magnit teatri uchun qoʻgʻirchoqlar yasalganda matoning silliqligi, ularning chiroyliligi, pishiqroq, bolalarni diqqatini tortadigan, chidamliroq boʻlishiga ahamiyat berish maqsadga muvofiqdir.

Bolalar bogʻchalarida qoʻgʻirchoq teatrlarining har xil turalrini tashkil qilish mumkin. Masalan, oʻyinchoqlar teatri, barmoq teatri, soya teatri, stol teatrlaridan keng foydalaniladi.

Oʻyinchoqlar teatri

Kichik, qiziqarli va uncha murakkab boʻlmagan spektakllarni qoʻyishda oʻyinchoqlardan foydalanish mumkin.

Tarbiyachi bolalar stoli oldida oʻtiradi, unga qarab stolning boshqa tomoniga bolalar yarim doira boʻlib 2-3 qator oʻtiradilar.

- Men sizlarga quyon bilan ayiqni qanday berkinmashoq oʻynaganligi haqida gapirib beraman. Shunday deb u bolalarning koʻz oʻngida oʻyinchoqlarni qoʻliga olib, harakat qildiradi, ular nomidan soʻzlaydi. Bolalar unga juda qiziqqanlaridan tarbiyachiga qaramaydi aksincha ular barcha diqqat eʼtiborlarini oʻyinchoqlariga qaratadilar. Oʻyinchoq teatri oddiyligiga qaramay, juda sodda teatrdan yiroq boʻlsa ham, kichkintoylar va katta guruh bolalari ham xohish va



qiziqish bilan tomosho qiladilar. Shu jihatdan qo'g'irchoq teatrining bu turi bolalar bog'chalarida keng yoyilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, o'yinchoq teatri boshqa qo'g'irchoq teatrlariga qaraganda oddiyligi sababli tarbiyachi oldidan katta tayyorgarlik ko'rmay turib ham ko'rsatish mumkinki, buning uchun har bir bog'chada o'yinchoqlar bol va bu teatr mahsus o'yinchoqlar ham, mahsus sahna ham talab qilmaydi. Spektakl mazmuni ham sodda bo'lib, uncha qiyin bo'lmagan harakatlarni bajara olishi kerakki, o'yinchoqlar tekst bo'yicha nima talab qilingan bo'lsa hammasini bajara olsin. O'yinchoqlarni tarbiyachi qo'li bilan harakatlantiradi. Ya'ni bolalarga ko'rsatish uchun o'yinchoq-qo'g'irchoq yuradi – uni asta sekin yurgizadi, qo'g'irchoq yuguradi - tez-tez yurgizadi. Uni har tomonga qaratadi, egiltiradi, o'rniga yotkizdiradi, majburlab sakratadi va boshqa harakatlarni bajartiradi. Shuning uchun u ikkinchi qo'li bilan yordam beradi. Masalan: Ayiqcha o'tirgan joyidan turishi kerak bo'lsa, tarbiyachi uni oyoqlarini to'g'irlab qo'yadi, agar qo'g'irchoq stulda o'tirib boshqa yoqqa o'tadigan bo'lsa, uni oyoqlarini ikki qo'llab harakatlantiradi. Quyuncha krovatga yotish uchun ko'rpani ochishi kerak unda tarbiyachi ikkinchi bo'sh qo'li bilan uni bajaradi. o'yinchoqlarni harakat qildirishda asardan tashqariga chiqib ketmaslik kerak, aks holda bolalar uchun qiziqarli bo'lmay qoladi.

Kuchli qayg'urish, qattiq hayajon, nafratlantiruvchi asarlarni qo'yish mumkin emas. Buni stol teatrida namoyish ham qilish qiyin. Masalan, soldat, dengizda suzuvchi, sexirgar, ot va aravada yurishni tasvirlash o'yinchoqlar teatri uchun ularni epchilligini, chaqqon yurish, yugurish va boshqalarni ko'rsatish mumkin emas.

Yana shuni aytish kerakki, katta-katta ertaklarni ham bu teatr orqali ko'rsatish mumkin, lekin bolalar ongiga mazmun jixatdan etib bormasligi mumkin.

Stol ustida qo'yiladigan o'yinchoqlar teatri boshqa teatrlarga o'hshab tekst asosida qo'yilib, tomoshabinlarga yorqin obrazni, ertakni yoki badiiy asarni mazmunini to'la ochib berishi kerak.

Tarbiyachi tekstni yodlab olishning o'zi yetarli emas, balki u asarni jonli, ifodali, (emotsional) hayajonli qilib aytib bera olishi kerak. Qaerda to'xtalishi, qanday asosiy joylarni aloxida ta'kidlashi kerak bo'lsa, tarbiyachi buni oldindan o'ylab qo'yadi. Bolalarga shunday xikoya qilish kerak-ki, ular juda qiziqish bilan eshitayotgan voqealarni ko'z oldiga jonli tasavvur qila olsin. Bundan tashqari tarbiyachi o'zining qanday o'tirish kerakligini, bolalarning xammasiga ko'rinarli bo'lishi, qo'g'irchoqlarni qanday ushlash kerakligini oldindan hal qilish kerak.

Yahshi ko'rsatilgan asarni bolalar uzoq vaqt eslab yuradilar. Ular qo'g'irchoq o'ynayotganda, ota-onalar uni aytib berib, o'rtoqlariga ya'ni o'sha kelmay qolgan o'rtoqlariga quvonch bilan so'zlab berib eslaydilar.

Bizning bog'chalarda qo'g'irchoq teatrining eng ko'p foydalaniladigan turi saxnada ko'rsatilgan qo'g'irchoq teatridir. Bunda qo'g'irchoqlarni qo'lga kiyib olinadi. Saxna deganda shirmani ko'zda tutish kerak. Qo'g'irchoq o'ynatuvchilar sahnaning ortida yashirinib turadi va qo'g'irchoqlarni boshqaradilar, ular nomidan gapiradilar.

Qo'g'irchoq teatri – xalq teatridir. U o'z tarixiga ega. Halq uni katta qiziqish bilan tomosha qilgan. Teatrni ko'rinish ochiq maydonda tashkil qilgan uchun uni minglab odamlar tik turib ko'rishgan. O'z davri voqealarini tasvirlagan. Ularni kulgili qilib ko'rsata olgan. Xozirgi vaqtda esa qo'g'irchoq teatri yanada takomillashgan, tajribali rejisyor raxbarligi ostida yaratilib, uni moxir artistlari jro etganlar.

Qo'g'irchoq teatri ancha qulayliklarga ega. Masalan, unda qahramonlar qiyinchiliksiz uchadilar, poezd yoki mashinada keladilar, ot-aravada yoki uchar gilamda uchib keladilar. Bu manzaralarni qo'g'irchoq teatrida ko'rsatish mumkin, lekin boshqa teatrlarda ko'rsatish imkoniyati yo'q.

Bu qo'g'irchoq teatrining boshqalariga nisbatan qulaylikka ega ekanligini ko'rsatadi. Lekin, anashularga qaramay unda yetishmovchiliklar xam bor. Bu shunday ko'rinadiki, unda qo'g'irchoqlarning yuz ifodasini o'zgartira olmaydi, kulish kerak bo'lsa, yoki yig'lash kerak bo'lsa ular bajara olmaydi, lekin ularni o'rnini ovoz beruvchining intonatsiyasi, uni boshqaruvchi odamning harakati bilan

ko'ngildagidek amalga oshirsa, jonlilik bahsh etish mumkin. Qo'g'irchoqning qo'li uni o'ynatuvchining barmog'iga kiritilgan bo'lgani uchun uning harakatlari chegaralanib qoladi: uning tirsagi bukilmaydi, u qo'lini xar tomonga harakatlantira olmaydi. Uning butun tanasi tomoshabinga ko'rinadi, faqat oyoq tomoni tizzasidan pastrog'igacha ko'rinadi, chunki uning oyog'i hech qandaya xam uyatli vazifa bajarmaydi.

Shunday bo'lishiga qaramay bolalar teatrni juda yahshi ko'radilar. Undagi voqealarga nisbatan o'z munosabatlarini bildiradilar, qahramonlarning quvonchlari bilan quvonadilar, g'amlariga sherik bo'ladilar. Qo'g'irchoqlar bolalarda katta taassurot qoldiradi. Hech kim bilan chiqisha olmaydigan bolalar va indamas, yuvvosh, injiq bolalar xam spektakldan keyin o'z taassurotlarini, qiziq va qoyil bo'lgan joylarini eslab umumiy suxbatga qo'shilib ketadilar. Qo'g'irchoqlarning kiyimlari, ularning bajargan harakatlari va so'zlarini uzoq vaqtgacha eslab yuradilar. Lekin tarbiyachining qo'lida turgan qo'g'irchoq xam katta axamiyatga ega. Bu shunda ko'rinadiki, tarbiyachi qo'g'irchoqni qo'lga kiyib olib u bilan bolalar oldiga keladi: qo'g'irchoq bolalar bilan gaplashadi, ular bilan biroz sho'xlik qiladilar, ularni erkalaydi, ayrim bolalarni ovutadi, birornarsa aytib berishni yoki biror harakatni bajarib berishini so'raydi. Bolalar uni aytganlarini albatta bajarishga harakat qiladilar, u bilan ko'proq o'ynashni xohlaydilar. Ammo afsuski, bog'chalarda teatr uchun o'yinchoqlar yetarli emas. Qo'g'irchoqni boshqarish qiyin, undan hech narsa chiqmaydi, foydasi yo'q deb o'ylaydi. Bu noto'g'ri, albatta. Shunday bog'chalar borki, bu soxa bilan butun kollektiv jam bo'lib bolalarga qiziq-qiziq spektakllarni ko'rsatadilar. Unday kollektivlardan o'rnak olsa arziydi.



STOL TEATRI

Qo'g'irchoq teatrining yana bir turi – stol teatridir. Ushbu teatr qo'g'irchoq va kartondan yasalgan personajlardan iborat bo'ladi. Stol teatri uchun namoyish qilish uchun stol usti - sahna, manzaralar va xar hil shakllardan iborat rasmlar bo'ladi .

Bu teatni xar bir gurux bolalari uchun tarbiyachining o'zi tashkil qilishi mumkin. Stol teatrida mahsus tayyor sahna bor, lekin uni kam miqdorda ishlab chiqilgani va xamma bolalar bog'chasida xam bo'lavermasligi uchun undan foydalanavermaydilar. Ayrim tarbiyachilar shunday qilishadiki: ular bolalarning oldiga o'tirib stolda sahnasiz, ko'li bilan shakllarni harakatlantirib o'ynatadi va asarmatnini o'qiydi yoki aytadi. Bunda shakllar har tomonga harakatlanadi va yiqilib tushmaydi, lekin tarbiyachining qo'l harakati bolalar diqqatini ko'proq o'ziga jalb etadi.

Bolalar tarbiyachining qo'lini ko'rmasliklari uchun qog'oz yoki kartondan kichik(balandligi 8 sm, uzunligi 40-50 sm) ayvoncha yasashi mumkin. Uni to'rt burchak shaklda emas tepalikka o'hshatib o'tlar va gullar shaklini qirqib yopishtirsa bo'ladi. Bu ishni asarda tasvirlashi bo'yicha har hil faslga mos holda qilish mumkin.



Masalan, qish faslini tasvirlasa yoy shaklida yasab qorparchalarini shakllarini qirqib yelimlash kerak va hokazo yoki quydagicha:



Shunda bolalarga har hil hikoya va ertaklar teatrini ko'rsatish mumkin. Lekin sahna va pardali manzara va orqa ko'rinishi mavjud bo'lsa, shunda haqiqiy teatr bo'ladi. Bu teatr boshqa teatlardan aloxida predmet va detallari borligi va ularni bezatish bilan farq qiladi.

Tarbiyachilar shakllarni chizishda qiynalayotgan bo'lsa, kitoblardan uni rasmini topib olib chizishlari, so'ng qirqib olishlari mumkin. Uychaning, daraxtlarning katta-kichikligida xar hil o'zgartirishlarga yo'l qo'yish mumkin, lekin odam shakli va xayvonlar bir-birlariga mos kelishi ayniqsa yuz va bosh tuzilishlari muntazam bo'lishi kerak.

Spektaklni qiziqarli chiqishi sahnadagi ish harakatiga, shakl ta'sirining did bilan va chiroyli chizilganiga, tarbiyachining maxorat bilan ko'rsatib, hikoya qilib berishiga bog'liq.

Shakllar stolning har tomonga harakat qilishi, tomoshabinga har tomondan ko'rinarli bo'lishi kerak, ish uchun qog'ozga chizganda uni xar ikkala tomonida xam tasviri bo'lishi kerak. Uni tik turishi uchun shaklga yelimlangan taglik mustahkamlangan bo'lib, teatr vaqtida shaklning egilib, yiqilib tushmasligi uchun qulay bo'lishi kerak. Ikkala tarafdin xam hayvon yoki odam shaklini taglikka avval birinchi keyin ikkinchisini bir-biriga mos yelimlash kerak. Agar hayvonlar masalar, mol, ot yoki bo'ri rasmi, unda ikki oyog'I tomonida xam taglik bo'lishi kerak, agar uzun, baland narsalar rasmi (uy, minora, tepalik va boshqa) bo'lsa ikki yoki uch joyda taklik bo'lishi yoki mahsus tirgovich xam qilish mumkin.

Tarbiyachi ba'zan xayvon yoki odam shakllarini harakatlantirayotganda darahtlarga qo'li tegib ular yiqilib ketishi mumkin. Shuning uchun darahst shaklini va boshqa shakllarni xam tagligiga mahsus narsa bilan mustahkamlab qo'yishi mumkin.



Shakllarni tayyorlash yoki bezatish bilan bir vaqtda tekst ustida xam ishlash talab qilinadi. Tarbiyachi avvalo tanlab olingan asarni ovoz chiqarib o'qib qahramonlarni o'zaro munosabati va holatini taxlil qiladi, rollarga bo'ladi. Hamma qatnashuvchilarni vazifasini oldindan bilib oladi. Bu teatrni qo'yishda 1 yoki 2 nafar tarbiyachi ko'rsatishi mumkin. Chunki teatrda shakllar soni ko'p bo'lishi, ular bir vaqtning o'zida harakat qilishi va so'zlashi mumkin. Harakatlarni muvofiqligi va ikki yoki uch hil ovozlar xam spektaklni sifatli chiqishiga yordam beradi. Tarbiyachi tekstni yoddan bilishi kerak, chunki tekstni bilmay turib uni o'qib berish shakllarni harakatlantirayotgan vaqtda qiyinchilik tug'diradi. Spektaklni musiqa ostida xam ko'rsatish mumkin. Bu esa bir guruh bolalar bilan emas balki butun bog'cha bolalariga ko'rsatilishi kerak bo'lgan spektakllarda tashkil qilinishi xam maqsadga muvofiqdir.

Teatr uchun tarbiyachining o'zi asarlarni tanlaydi va bolalar yoshi qiziqishiga qarab tashkil etadi. Tarbiyachi spektakl uchun tayyorgarlikni xamma qahramonlar harakatini o'zlashtirib tekstni yod olgandan keyingina ko'rsatishi mumkin. Bolalarni qulay va yahshi ko'rishlari uchun stolni biroz balandroq ko'tarish kerak, shunda xamma bolaga ko'rinarli bo'ladi. Tarbiyachining qo'li bolalar diqqatini

ko'p xam jalb qilmasligi uchun stolni shunday joylashtirish qulaydir. Stolga yorug'lik bir tekisda tushib turish kerak.



Bolalarni ikki, uch qator bo'lib o'tirishlari va ularning oralarida ma'lum bir masofa bo'lishi kerak. Birinchi qator stoldan ikkinchi 5-3 metr masofada uzoqlikda joylashadi.

SOY ATEATRI

Qo'g'irchoq teatrining o'ziga hos turlaridan biridir. Unda qo'g'irchoqlar emas balki shakllardan iborat o'yinchoqlar o'ynaydilar, tomosha qiluvchilar sahna ro'parasida o'tiradilar va unda yangi ekranda harakatlanayotgan soyalar: odamlar, hayvonlar va quyshlar soyasi ko'rinadi.

Soyalar ekranga yorug'lik orqali chiqadi va ekranda ularning shakllari ko'rinadi, shakllarni bir yoki ikki yoqdan ekran ortidan boshqarib turadi. Soyalarning ko'rinishini hikoya, ertak, masallar yoki she'riy asarlarni o'qish bilan bir vaqtda olib boriladi. Xozirgi vaqtda bu teatrdan maktabgacha tarbiya muassasalarida juda kam foydalaniladi, chunki tarbiyachilar o'zlari uchun qulay bo'lgan o'yinchoqlar, qo'g'irchoq va stol teatridan foydalanadilar. Soya teatri shakllarni kam harakat qilish xolati, egilib burilishdagi qiyinchiligi, ekranga uzoqligi va shaklning orasida boshqa bir shaklning joylasha olmasligi o'ziga hosligidir. Huddi ana shu narsalar teatr uchun asar tanlashda katta axamiyatga ega.

Bog'cha yoshidagi bolalar soyalarni tomosha qilishni sevadilar, quyonchalar, o'rdaklar, kuchuk, turli va odam shakllarining soyasini ko'rish ular uchun juda qiziqarlidir. Ayniqsa bu shakllarni qo'l va barmoqlar yordamida ko'rsatganda juda quvnab ketadilar va bolalarning o'zlari xam qo'llarida ularni devor yoki erda soyasini ko'rsatishga harakat qiladilar. Katta bolalardan tortib kichik yoshli bolalargacha katta qiziqish va hursandchilik bilan tomosha qiladilar. Bu teatr uchun odam yoki hayovon shaklida qog'ozdan qirqilgan tasvirlardan foydalaniladi. Ekran uchun esa karton yoki fanerdan to'rt burchak shaklida ramka yasab qo'yish mumkin.



Teatr uchun har hil asarlarni tanlash va ularni teatrlashtirish tarbiyachidan kuch va maxorat talab qiladi. Bolalar "Bo'g'irsoq", "Qizil shapkacha", "Chiroyli uycha", "Zumrad va qimmat", "Bo'ri va echki bolalari" kabi ertaklarni juda ko'p marta eshitgan hatto ularni mazmunini yoddan bilib olishgan, shunga qaramay ertaklarni soya teatrini ko'rsatilganda bolalar uni yanada boshqacha qiziqish bilan tomosha qiladilar.

Soya teatri qo'yish uchun uch nafar tarbiyachi qatnashadi, bir tarbiyachi ekran oldida o'tirib ertakni aytib turadi, qolgan ikki nafari esa shakllarni boshqarib turadi. Shakllardan tashqari soya teatrida odamlar shaklini aynan bolalarning o'zlari ijro etishi mumkin, lekin bog'chada bu juda kam bo'ladi. Bolalar uchun katta tayyorgarlikni talab qiladi. Soya teatrining qog'ozdan yasalgan shakllardan foydalanib qo'yish qulay va maqsadga muvofiqdir.



Barmoq teatri.

Bunda bolalar faqatgina tomoshabin emas, balki bevosita ana shu jarayonda o'zlari ham ishtirok etishlari mumkin. Teatr qahramonlarini qog'oz va paralondan ham yasash mumkin. Qog'ozdan odam va hayvonlarning kichik tasvirini barmoqlarga kiyib olinadigan tarzda yasash tavsiya etiladi. Qo'g'irchoqlar stilindr, konus, quti shaklida tayyorlanishi mumkin. Bezash uchun turli gazlamalardan foydalanish mumkin. Gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va teskari tomonidan tikilib, so'ng ag'darilib, kerakli joylari tikiladi. Barmoq teatrining boshqa teatlardan farqi shundaki, unda ertak qahramonlari bolalarning barmoqlariga mos kichik va ertak ko'rsatuvchining barmog'iga to'g'ri keladigan xolatda tayyorlanishidir.

Bolalar bog'chasida katta va qiyinspektakllarni qo'yish mumkin emas. Kichik sahnali, kichik ertak asosida o'zlarining o'yinchoqlari yordamida qo'yishlari mumkin. Bu kichik ko'rinishlarining har biri ham bolalarda katta taassurot uyg'otib, bayram ertaliklariga ko'tarinki ruh bahsh etadi. Har qanday badiiy asarni qo'g'irchoq teatri orqali ko'rsatilsa, bolalar uchun yanada tushunarli bo'ladi.



3. QO'G'IRCHOQLARNI TAYYORLASH TEXNOLOGIYASI.

Maktabgacha ta'lim muassasasi tarbiyalanuvchilari faoliyatlarida axloqiy-estetik sifatlarni shakllantirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni samarali yo'lga qo'yishda tarbiyalanuvchilarning ijodiy faoliyatlarini tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Maktabgacha ta'limning hozirgi bosqichida tarbiyalanuvchilarni ijodiy mehnatga tayyorlash – kelajak avlodning ta'lim-tarbiyasiga qo'yiladigan muhim vazifalardan biridir.

Har bir tarbiyachi avvalo o'zi qo'g'irchoq yasashni bilishi lozim va bolalarga tushunishi uchun oson va sodda usulda o'rgatishi lozim. Qo'g'irchoq yasashga bolalarni jalb etish orqali bola tarbiyachining rahbarligida qo'g'irchoq yasash ekan, o'zi ishlayotgan materialning xususiyati (egiluvchanligi, qalinligi, yuqqaligi)ni, uning ko'rinishini o'zgartirish mumkinligini bilib oladi va eng asosiysi bolada ijodkorlik qobiliyati tarkib topadi.

Tarbiyalanuvchilarni ijodiy mehnatga tayyorlash ularning qiziqishlari, moyilliklari va imkoniyatlariga asoslangan qo'l mehnati hisoblanadi. Qo'l mehnati jarayonida bolalar asosan tashlandiq (keraksiz, chiqindi) materiallardan, sun'iy xom-ashyolar bilan ishlash ko'nikmalari hosil qilinadi.

1. Qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: qo'g'irchoqni kiyintirish uchun mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, kulollar ishlatadigan loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz va har xil rangli bo'yoqlar.


1-bosqich. Tasvir (eskiz) chizish.

Bunday qo'g'irchoqlarni yasash uchun eng avvalo, oddiy vatman qog'oz yoki rasm daftar varog'iga yasaladigan qo'g'irchoqlarning tasviri (eskizi) chiziladi. Qo'g'irchoqning ko'rinishi, uning xarakteri va qanday kiyimda bo'lishi ana shu rangli tasvirda aks etgan bo'lishi kerak.

2-bosqich. Qolip (forma) tayyorlash.

Chizilgan tasvirga qarab loydan va plastilindan o'sha qo'g'irchoqning bosh qismi haykali yasaladi. Bosh qismi tayyor bo'lgach, ingichka po'lat sim olib quloq o'rnatiladigan joydan teng ikkiga bo'linadi va qattiq karton qog'oz olib unga

yotqizib qo'yiladi. So'ngra qotishma yopishib qolmasligi uchun haykalchanning yuza qismini vazelin bilan yog'lab chiqiladi va albastr yoki gipsdan suyuqroq qotishma tayyorlanib yog'langan joyga qo'yiladi. Qotishma qotgandan so'ng uni qo'lga olib ichidagi loy yoki plastilinni o'yib chiqarib olinadi. Natijada qolip (forma) tayyor bo'ladi.



3-bosqich. Nusha ko'chirish.

Yasalgan qolipdan nusha ko'chirish uchun eng avvalo, oddiy suvga bo'ktirilgan qog'oz parchalari yopishtirib chiqiladi. Sababi nusha tayyor bo'lgach uni qolipdan chiqarib olish oson bo'ladi. Oddiy undan atala qilinib, to qo'yiqlashguncha qaynatiladi. Shu tariqa yelim (kleystr) tayyorlanadi.

Tayyor elimni qog'oz parchalariga surtib, uni qolip devorlariga yopishtirib chiqiladi. Yopishtirilgan qavatlar 6-8 qavatdan kam bo'lmasligi lozim. Qavat qanchalik ko'p bo'lsa qo'g'irchoq shunchalik pishiq bo'ladi. Yana ham pishiq bo'lishi uchun har 3 qavat orasiga doka mato ham yopishtiriladi. Qavatlarni yopishtirayotganda shoshilmay yaxshilab yopishtirish zarur. Agarda oraliqqa havo kirib bo'shliq paydo bo'lsa, qo'g'irchoq sifatsiz chiqadi.

Qavatlarni qolipga yopishtirib bo'lgach, uni quritish uchun issiq joyga qo'yiladi va qurib bo'lgach tayyor bo'lgan nushani sekin-astalik bilan qolipning ichidan chiqarib olinadi.

4-bosqich. Yelimlash.

Ikki bo'lakdan iborat qo'g'irchoqning bosh qismi qaytarib elimlanadi. Qo'g'irchoqning boshi harakatga kelishi uchun unga kichkina tayoqcha (gabit) ni ham qo'shib elimlanadi. Ushbu jarayonda ikkala nushaning bir-biriga tekis va artoflari teng ustma-ust tushishiga alohida e'tibor qaratish zarur.

5-bosqich. Pardozlash.

Tayyorlangan qo'g'irchoqqa pardoz berish jarayonida har xil mato va rangli bo'yoqlardan foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda estetik did muhim o'rin tutadi. bezakni tanlash qo'g'irchoqning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi. Eng avvalo yelimlangan bosh qismini yaxshilab jilvir qog'oz bilan ishlov beriladi. So'ngra oq rangli bo'yoq beriladi.

6-bosqich. Bezash.


Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqni bezash uchun tasvirda ko'rsatilgandek kiyintirilib, qo'l-oyoqlar ulanib, kiprik, soch-soqol, dumlar, umaman, kerakli narsalar yopishtiriladi. Qo'g'irchoq qo'lda kiyib o'ynatilgani bois ikki barmoq sig'adigan moslama (patron) qo'g'irchoqning panjasiga qo'shib tikiladi. Qo'g'irchoq harakatlanishi uchun tayyor holatga keltiriladi.



2. Sim (trost') bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: po'lat sim, qo'g'irchoqni kiyintirish uchun har xil mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, kulollar ishlatadigan loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz, har xil rangli bo'yoqlar, yog'och parchalari, yog'och ustasining asbob-anjomlari. 1-5 gacha bo'lgan bosqichlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar kabi bo'ladi.

Bezash ishlari. Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqning bosh qismini endi tayoqcha (gabit)ga emas, balki, mexanizator usta tayyorlagan moslamaga qotiriladi. Bu moslamada qo'g'irchoqning qo'llarini qatirish elka qismida bo'lai. Ya'ni



qo'g'irchoqning panjalari simga o'rnatilgan moslamaga, moslama esa qo'g'irchoqning elkasiga mahkamlanadi. Agarda zaruriyat tug'lsa qo'g'irchoqning oyoqlariga ham sim o'rnatish mumkin. Sim bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarning boshqa qo'g'irchoqlardan farqi – uning oyoq va qo'llari sim bilan boshqariladi.

3. Ip (marionetka) bilan boshqariladigan qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: kosiblar ishlatadigan qora rangli ip, qo'g'irchoqni kiyintirish uchun har xil mato, qaychi, har xil qog'ozlar, yupqa doka, jilvir qog'oz, loy yoki plastilin, gips, alebastr, vazelin yog'i, vatman qog'oz, karton qog'oz, har xil rangli bo'yoqlar, yog'och parchalari, yog'och ustasining asbob-anjomlari. 1-5 gacha bo'lgan bosqichlar qo'lga kiyib o'ynatiladigan qo'g'irchoqlar kabi bo'ladi.

Bezash ishlari.

Pardozdan chiqqan qo'g'irchoqning bosh qismini mexanizator tayyorlagan qo'g'irchoqning gavda qismiga qatiriladi. Qo'g'irchoqning qo'l-oyog'i, gavdasi va bosh qismidan ip tortib qo'g'irchoqni boshqarish uchun tayyorlangan moslamaga qotiriladi. Ip bilan boshqariladigan qo'g'irchoqning o'ziga xos xususiyati shundaki, uning harakatlari boshqa qo'g'irchoqlar harakatiga nisbatan hayotiyroq yoki qiziqarliroq bo'ladi. Bu esa tomoshabinni o'ziga yanada jalb qiladi.



4. Soyali (tenevoy) qo'g'irchoqlarni yasash.

Kerakli jihozlar: ekran yasash uchun oq mato, harxil o'lchamli yog'ochlar, qaychi, jilvir qog'oz, qattiq karton yoki ishlatish uchun tayyorlangan hayvon terisi (fanera ham bo'lishi mumkin), yog'och ustasi ishlatadigan asbob-anjomlar, har xil o'lchamli mix, ekranni yoritish uchun elektr jihozlari.



1-bosqich. Ekran tayyorlash.

Soyali tomosha ko'rsatish uchun eng avvalo, ekran tayyorlash kerak. Buning uchun yog'ochdan to'rt burchak shakl yasab, unga oq rangli mato tortiladi. Yoritish uchun esa ekran chetlariga yoritgichlar o'rnatiladi.

2-bosqich. Tasvir (eskiz) chizish.

Tomoshada kerakli qo'g'irchoqlar va dekoratsiyalar tasvirini oddif vatman qog'oz yoki rasm daftariga rangli holatda chiziladi.



3-bosqich. Nusha ko'chirish.

Qadimda qo'g'irchoqbozlar soyali tomosha qo'g'irchoqlarini yasashda har xil hayvon terilaridan foydalanishgan. Zamonaviy qo'g'irchoqbozlar fanera yoki qattiq kartonlardan foydalanishmoqda. Tasvir (eskiz)da chizilgan qo'g'irchoqning o'lchamiga qarab qattiq karton yoki faneraga nushasi ko'chiriladi.

4-bosqich. Yelimlash.

Karton yoki faneraga ko'chirilgan nushaga jilvir qog'oz bilan ishlov beriladi. Qo'g'irchoqni boshqarish uchun tayyorlangan dastakni unga yaxshilab qatiriladi. So'ngra oq mato olib qo'g'irchoq elimlanadi.



5-bosqich. Pardoqlash.

Tayyor bo'lgan qo'g'irchoq va dekoratsiyaga so'ngra bezak ishlari beriladi. Unda har xil rangli bo'yoqlardan foydalaniladi. Bo'yoqlar qurishi uchun issiq joyga joylashtiriladi. Qurigan qo'g'irchoqlar bemaol tomosha uchun foydalaniladi.

5. Yapaloq (tekis) qo‘g‘irchoqlar yasash.

Kerakli jihozlar: yupqa va qalin karton qog‘ozlar, qalam, qaychi, elim, rangli qog‘ozlar (rangli qalamiyoki rangli bo‘yoqlar bo‘lishi ham mumkin).

1-bosqich. Tasvir chizish.

Turli xil ko‘rinishdagi tasvirlar (hayvonlar, odamlar va h) yupqa karton qog‘oziga chiziladi.

2-bosqich. Nusha ko‘chirish.

Chizilgan tasvir qaychida qiyib olinib, qalin karton qog‘oz ustiga qo‘yib, atroflari qalam bilan chizib olinadi. Xuddi shu harakat ikkinchi nussha uchun ham takrorlanadi. So‘ngra har ikkala nusxa qaychi bilan qirqib olinadi.

3-bosqich. Yelimplash.


Tayyor qirqib olingan tasvirlar bir-biriga elim orqali yopishtiriladi. Ushbu jarayonda ikkala nushaning bir-biriga tekis va atroflari teng ustma-ust tushishiga e‘tibor qaratish zarur.


4-bosqich. Pardoqlash.

Tayyorlangan qo‘g‘irchoqqa pardoz berish jarayonida rangli qalamlardan yoki rangli qog‘oz va turli bo‘yoqlardan foydalanish mumkin. Ushbu jarayonda estetik did muhim o‘rin tutadi. Bezakni tanlash qo‘g‘irchoqning xarakter xususiyatlaridan kelib chiqadi.

5-bosqich. O‘rnatish.

Yapaloq (tekis) qo‘g‘irchoq yasash jarayonida ushbu bosqich muhim ahamiyat kasb etadi. O‘rnatishda qo‘g‘irchoqning pastki qismidagi qoq yopishgan yeridan qisman ochib, ostiga muvozanat saqlashi uchun muayyan o‘lchovda yanada qalinroq karton qog‘ozni yopishtirish mumkin. Yoki bo‘lmasa, plastilindan ham foydalanish mumkin.





6. Magnitli teatr.

Maktabgacha ta'lim muassasalari sharoitida ushbu teatrni keng qo'llash mumkin. Buning uchun xoh tayyor kichik qo'g'irchoqlar bo'lsin, xoh bolalar tomonidan yasalgan qo'lqoshsh, qog'ozli, tekis (yapaloq), porolonli qo'g'irchoqlar bo'lsin ularning ostiga magnit kesimi o'rnatiladi. So'ngra moslashtirilgan stol ustida metall (magnit tortadigan) o'rnatiladi. Ko'rinmaslik uchun ustiga mato tortiladi. Ushbu teatrda asosan qarama-qarshi 2-3 ta bolaga mo'ljallangan bo'lishi maqsadga muvofiq. Qo'g'irchoqlar bir-biriga qarab harakatlanishi, bir-biridan qochishi (quvlashi) mumkin. Magnit teatri uchun

qo‘g‘irchoqlar yasalganda, albatta, ularning pishiqroq, chidamliroq bo‘lishiga ahamiyat berish maqsadga muvofiq.



7. Barmoq teatri.

Bunda bolalar faqatgina tomoshabin emas, balki bevosita ana shu jarayonda o‘zlari ham ishtirok etishlari mumkin. Teatr qahramonlarini qog‘oz va paralondan ham yasash mumkin. Qog‘ozdan odam va hayvonlarning kichik tasvirini barmoqlarga kiyib olinadigan tarzda yasash tavsiya etiladi. Qo‘g‘irchoqlar stilindr, konus, quti shaklida tayyorlanishi mumkin. Bezash uchun turli gazlamalardan foydalanish mumkin. Gazlamaning sitilib ketmaydigan xili tanlanadi va teskari tomonidan tikilib, so‘ng ag‘darilib, kerakli joylari tikiladi. Barmoq teatrining boshqa teatlardan farqi shundaki, unda ertak qahramonlari bolalarning barmoqlariga mos kichik va ertak ko‘rsatuvchining barmog‘iga to‘g‘ri keladigan xolatda tayyorlanishidir.



8. Qo'rqopli qo'g'irchoqlar.

Ushbu qo'g'irchoqlarni bolalar qo'lga kiyib ushlagan holda stol teatrlarida foydalanishlari mumkin (tarbiyachilar bolalarda yanada yaqqol tushuncha hosil qilishda teleekran orqali bolalar uchun namoyish etiladigan "oqshom ertaklari" dagi qo'g'irchoqlarning xatti-harakatlarini ko'z oldilariga keltirishlari mumkin).





Nazorat savollari.

1. Qo'g'irchoq teatri haqida tushuncha bering?
2. Teatrining bolalar hayotidagi o'rni qanday?
3. Qo'g'irchoq teatri turlarini sanab bering: magnitli, soya, barmoq teatrlarining o'ziga xos farqlarini aytib bering?
4. Stol teatrining tuzilishi va jihozlari qanday ?
5. Soya teatr, qanday yasash va namoyish etish lozim?
6. Simli, ipli, magnitli qo'g'irchoqlar haqida ma'lumot bering?
7. Qo'g'irchoqlarni tayyorlashtexnologiyasi hamda bosqichlarini sanab o'ting?
8. Qanday qo'g'irchoqlar yasay olasiz?
9. Qo'g'irchoq yasashda nimalarga e'tibor berish va qanday jihozlardan foydalanish kerak?
10. Tayyor qo'g'irchoq bilan rollarni o'yinash qoidalari bormi?

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. - Toshkent, O'zbekiston, 2017.
2. 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi PF-4947 sonli Farmoni.
3. Yusupova P. Maktabgasha tarbiya pedagogikasi. T.: O'qituvshi. 1993.
4. Xasanboeva O.U. va boshq. Maktabgasha ta'lim pedagogikasi. T.: Ilm ziyo. 2006.
5. Sodiqova Sh.A. Maktabgasha pedagogika. T.: Tafakkur bo'stoni 2013